

AN'ANAVIY QO'G'IRCHOQ TEATRIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANALARI

O.Qulmurodov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Bu maqolada an'anaviy qo'g'irchoq teatridagi ustoz-shogird an'analarini tarixiy ildizlari hamda bugungi kundagi jarayonlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: teatr, san'at, madaniyat, yoshlar, ijodiy salohiyat, spektakl, qo'g'irchoq teatri, mafkuraviy immunitet

TRADITIONS OF APPRENTICESHIP IN TRADITIONAL PUPPET THEATER

O.Kulmurodov

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article provides information about the historical roots and processes of the master-disciple tradition in traditional puppet theater.

Keywords: theater, art, culture, youth, creative potential, performance, puppet theater, ideological immunity

Tarixdan ma'lumki, an'anaviy qo'g'irchoq teatri ustoz-shogirdlik an'anlari asosida shakllanib, yashab kelgan. Xalq orasidan chiqqan o'yinchilar, qo'g'irchoqbozlar o'zlarining mahoratlarini iqtidorli yoshlarga asosan, o'z farzandlariga o'rgatgan holda san'atni asl mohiyatini saqlab keldi. Shu boisdan ham qo'g'irchoq teatri asoschilarini aksariyat qismini ustozoda san'atkorlar tashkil etadi.

Keyinchalik qo'g'irchoq teatr san'atining professionalashuvi, teatr san'ati ta'limining yo'lga qo'yilishi ustoz-shogird an'analarini ma'lum bir asosda yashab kelishiga sabab bo'ldi.

Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi ham aynan ustoz-shogird an'anlari bilan bevosita bog'liq.

Xorazm xalq og'zaki ijodi, Xiva xalq teatri an'analarini, qadim ko'cha tomosha, darbozlar, masxaraboz va qo'g'irchoqbozlar san'atini ustoz-shogird maktablariga asoslangan tarzda ustozona davom etib kelmoqda. Nurullaboy hududidagi teatr truppalari, keyinchalik Xorazm viloyati teatri, kalxoz-savxoz teatri, xalq teatrlarida ustoz-pirlar, ulug' san'atkorlar faoliyat yuritishgan. Xususan, Sheroziy, Mug'anniy, Hamza, Qurbon ota, Sulaymon Samandarov, Bola baxshi Abdullayev singari tabiat

in'om etgan iqtidorli san'at egalari garchi maxsus bilimga ega bo'lmasalarda, Xorazm san'atini ustoz-shogirdlik an'anasi tarzida saqlab, rivojlantirib kelganlar.

Teatrning paydo bo'lishida ustoz-shogirdlik an'anasi katta rol o'ynadi. Bu borada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Maryam Ashurovaning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. M.Ashurova 1987-yilda Xiva tumani madaniyat bo'limi taklifi bilan havaskor qo'g'irchoq teatrini ochadi. Bu borada bir necha iqtidorli yoshlarni teatrga jalb etib ustoz-shogirdlik an'analari asosida tarbiyalaydi. Shu yoshlar orasida rejissyor Gulbaxor Yusupova ham bor edi. Gulbaxor opa ushbu kunlarni shunday xotirlaydilar:

"Meni 1987-yilda ustozimiz Maryam Ashurova Xivadagi madaniyat uyi qoshidagi qo'g'irchoq havaskorlik to'garagiga taklif qildilar. Shu vaqtlarda men maktabning 9 sinfida o'qir edim. Dastlab, "G'ozcha" nomli spektaklni tayyorladik. Shundan so'ng qo'g'irchoq teatriga muhabbatim ortib, kelajagimni shu soha bilan birga ko'ra boshladim. Maktabni tamomlab oliy o'quv yurtida shu soha bo'yicha ustozim Maryam Ashurovadan mahorat sirlarini o'rgandim"¹

Havaskor qo'g'irchoq teatri "G'ozcha", "G'aroyib poyga", "Kambag'al Murod haqida ertak" spektakllarini muvafaqqiyatli sahnalashtirib, viloyat tumanlarida qo'g'irchoq teatr tomoshalarini keng targ'ib qilib, tahsinga sazovor bo'ladi. Havaskor teatr qatnashchilarida mahorat kundan-kunga oshib boradi va ularning ko'pchiligi Toshkent teatr institutiga (Hozirgi O'zbekiston san'at va madaniyat instituti) o'qishga qabul qilinadi. Oliygo'ni tamomlagan talabalarning ayrimlari 1993-yil O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil qilingan Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatrida professional aktyor sifatida ijod qila boshlaydilar.

Teatrning rivojida ijodiy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizdagi va xatto chet elda faoliyat olib borayotgan taniqli dramaturglar, rejissyorlar, kompozitorlar, rassomlarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston xalq artisti B.Yo'ldoshov, O'zbekiston san'at arbobi, dramaturg J.Mahmud, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi M.Ashurova, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Sh.Yusupov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Sh.Hayitboyev, H.Rasul, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist F.Xo'jayev, E.Hushvaqto'v, I.Seduhin, Y.Sahman kabi buyuk ijodkorlar teatr ijodiy barkamolligida munosib o'rin egalladi.

Aytish joizki, 1999-yildan 2011-yilga qadar teatr bosh rejissyorsiz faoliyat ko'rsatdi. To'g'ri 10 yil davomida 3-4 ta sahnalashtiruvchi rejissyorlar ishlashdi. Undan tashqari Respublikadagi yuqorida nomi tilga olingan yetakchi rejissyorlar bir necha marta taklif etilib, aktyorlarni shakllanishida muhim rol o'ynadi. Ular teatrga o'zgacha atmosfera olib kirib, bugungi kundagi yutug'ida kamarbasta bo'lishdi.

¹ Хоразм вилоят кўғирчоқ театри бош режиссёри Гулбахор Юсупова билан суҳбат 2022 18 апрел.

Teatr ijodkorlari ustoz-shogird an'analari sifatida an'anaviy teatr na'munalariga, elementlariga doimiy ravishda murojaat etib kelmoqda. Chunki, folklor san'ati qo'g'irchoq teatri rivojida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Xiva madaniyat muhitidagi qadimgi xalq o'yinlari masxarabozlik san'ati, qiziqchilar, dorbozlar guruhidagi polvonlar "Yog'och oyoq", "Taqlidchi", "Xatarli o'yin" sohiblari, qo'g'irchoqbozlar, xo'rozboz, xalq orasidagi aytimchilar, to'y va sayllarda tomosha ko'rsatadigan ijrochilar xalq an'anaviy teatrining ilk ko'rinishlarini yodga soladi.

An'anaviy teatr tomoshalariga xos spektaklda satirik kulgu yetakchilik qiladi. Xususan, salbiy obrazlarning tomosha davomida kirdikorlari ochilib, qing'irliklari fosh bo'lgach, ijobiy qahramonlar ular ustidan istexzoli kulishadi.

Qo'g'irchoqbozlik san'ati ibtidosiga tashlangan nazar, milliy kuy qo'shiqlardan unumli foydalanilgani va chiroyli yakun spektakl jozibadorligini oshirgan.

Spektakl davomida voqealarning o'zaro bir-biriga bog'lanib ketishi, bu jarayonning milliy folklor jarayon bilan uyg'unlashib ketishi ustoz shogird an'analarning davom etib kelayotganligining yaqqol ifodasidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek har bir sohaning rivojini ustoz-shogirdlik an'analari tasavvur etib bo'lmaydi. Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos yutug'ida bu narsa katta rol o'ynadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda teatrning 80 foiz aktyorlari mamlakatimizda yaratilgan ulkan sharoitlar va imkoniyatlar natijasida oliy o'quv yurtida tahsil olmoqda. Bu ko'rsatkichning o'zi ham teatrdagi ustoz-shogird an'analarning yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

Teatrdagi Davlatnazar Yusupov, Rustamboy Allaquliyev, Rohila Matniyozova, Davronbek Otaboyev singari tajribali san'atkorlar yosh aktyorlarga ustozlik qilib kelmoqda. E'tiborlisi shundaki teatrdagi o'ziga xos, yaxshi bir an'analardan biri sifatida aktyorlar uchun muntazam ravishda qo'shimcha dars jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Aktyorlar teatrga shunchaki kelib ketishmaydi. Spektaklga tayyorgarlik jarayonlaridan tashqari har kuni ustozlaridan mahorat sirlarini o'rganishadi. Xususan, teatrning adabiy emakdoshi D.Yusupov hamda Rohila Matniyozova aktyorlarning nutq madaniyatini shakllantirishda faoliyat olib borsa, R.Allaquliyev vokaldan dars berib ularning ovoz intonatsiyalarini boyitishda, Y.Allaberganov esa raqs harakatlarini puxta egallashida yordam berib kelmoqda. Shu singari boshqa tajribali mutahassislar har tomonlama aktyorlarni mahoratini oshirishda mushtarak bo'lib kelishmoqda. Teatr ijodkorlari bu dargohga kirib kelgan har qanday iqtidor egasini tashlab qo'ymasdan qo'llab-quvvatlashadi. Qo'ldan kelgan hamma yordamni ayamadan tom ma'noda teatrning ijobiy qolipiga solishga erishadi.

Teatrning rivojlanishi iqtidorli, tashabbuskor ijodkor D.ataboyev nomi bilan bevosita bog'liq. Bugungi kunda ham yosh aktyor va rejissyorlarga ustozlik qilib kelayotgan san'atkor teatrning badiiy saviyasini oshirishda samarali hissa qo'shadi. Bu borada mamlakatimizdagi taniqli rejissyor, dramaturg, rassomlar bilan hamkorlikda

ishlab, teatr salohiyatini oshirishda katta hissa qo'shdi. D.Otaboev teatrdagi ko'pgina ustozlarni iliq jumlar bilan eslaydi.

Ko'rinib turibdiki teatrdagi ustoz-shogird an'analar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu an'analar nafaqat teatr ichida, balki Respublikadagi yetuk mutahassislardan tortib, jahon teatr ijodkorlari o'rtasida mustahkam asosda yo'lga qo'yilgan. Bu esa teatr jamoasining intiluvchan va talabchan, o'z kasblariga muhabbatli ekanligini ko'rsatadi. Shu boisdan bugungi kunda o'ziga xos o'rniga ega teatrlar safidan joy olib turibdi. Garchi teatrdagi boshqa teatrlar singari muammolar ham yo'q emas. Xususan, bir necha yildan beri teatrning shaxsiy binosi yo'q. Emin-erkin ijod qilishning imkoniyati yo'q. Joy torligi sabab aktyorlar mazza qilib ishlay olishmaydi.

Ammo, teatrdagi hali boshqa teatrlarda yo'q bo'lgan texnikalar bor, qo'g'irchoq yasash texnologiyalar ancha rivojlangan. Qo'g'irchoq teatrining qo'lqop, planshet, simli, maska, Marionetka singari hamma turlari bor. Ammo, ulardan unumli foydalanish uchun maxsus bino yo'q. Shunday bo'lsada, bu muammolar ijodiy muhitga ta'sir ko'rsata olmaydi. Chunki, haqiqiy ijod egalari hamma joyda san'at asarini yaratishga qodir bo'ladi. Umid qilamizki, tez orada teatrdagi bu og'riqli masala o'z yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova Maryam Aktyorlik mahorati fanini o'qitish metodikasi /o'quv qo'llanma/. - Toshkent.: "Innovatsiya - Ziy", 2020, 129 b.
2. Ashurova Maryam Aktyorlik mahorati /darslik/. - Toshkent: "Innovatsiya - Ziy", 2021, 210 bet.
3. Abdusalilov A'zamjon Qo'g'irchoq teatri rejissorligi /o'quv qo'llanma/. - Toshkent: "Innovatsiya - Ziy", 2020, - 109 b.
4. V.Yusupova, "Iskusstvo teatra kukol i sistema K.S.Stanislavskogo"
5. www.ziyonet.uz